

O'ZBEK TILI GISTOLOGIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA XUSUSIYATLARI

Komilova Xonzoda Muzaffar qizi

ADCHTI inglez tili va adabiyoti fakulteti talabasi

E-mail: xonzodakomilova181@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muqimjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) f. f. d., dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada inglez va o'zbek tillarida gistologik terminologiyasining shakllanishi va xususiyatlari talqinlangan. Ingliz tilida mavjud bo'lgan gistologik terminlarni hosil qilishda salmoqli foydalaniladigan prefikslarni ko'rib chiqildi. Gistologik terminlarni shakllantirishda prefiksatsiya usuli tibbiyat sohasini chuqur o'zlashtirmoqchi bo'lgan talabalar uchun asosiy dolzarb aniqlangan.

Kalitso'zlar: *gistologik, terminologiya, ensiklopedik, pnevmoniya, atama, lotin tilida.*

O'zbek tili gistologik terminologiyasi shakllanishi bevosita tibbiy termin, ya'ni voqelikni tushunishning ma'lum bir belgilangan sitemasini ifodalab, intelektual aloqa kanalining biri, bilan uzviy bog'langandir. Gistologik terminlar shakllanishini tadqiq etishda asosiy manbaa sifatida umumiylar tavsiyalarini va shakllanish bosqichlarini ko'rib chiqish zarur. Vinogradovning fikriga ko'ra "Terminlarni yaratish va belgilashning ikki tomoni, ikki nuqtai nazari mavjud: til strukturasi va tushunish, semantik shartli ravishda ilimdag'i u yoki bu tushunish sistemasining rivojlanishi"³⁹ deya izoh beradilar. Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: «Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiylar bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi»⁴⁰.

Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layoutganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va

³⁹ Воджно Л.И. Научнотехническая терминология из объектов изучение закономерностей развитие языка // Филологическая наука. 1971 – с. 103

⁴⁰ (Лотте Д.С. Основы построения научнотехнической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961 – с. 29

taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

D.S.Lotte qanday kategoriyadagi so‘zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: “texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, quollar, asboblar, detallar va h.k.); xossalr; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o‘lchov birliklari”⁴¹, A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so‘zlariningbir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: “termin – bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, kasb-hunar so‘zları esa – biror kasb, mutaxassislik o‘rtasida ko‘pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir”⁴².

Terminologik lug'atni ikki qatlama bo‘lish mumkin: umumiy terminologiya va yuqori ixtisoslashgan. Umumiyl terminologik lug‘at fanning turli sohalarida qo‘llaniladigan so‘zlar, atamalar, masalan, dori, asbob, element bilan tavsiflanadi. Muayyan fan sohasida qo‘llaniladigan atamalar yuqori ixtisoslashgan terminologiyaga tegishli. Yuqori ixtisoslashgan terminologiya - bu bilimning har bir sohasiga xos vogeliklarni, tushunchalarni, kategoriyalarni nomlaydigan maxsus atamalarning eng vakillik qatlami. Yuqori darajada ixtisoslashgan atamalar uchun tashkiliy tamoyil – bu atamalarning har bir tizimida va terminologiyada (maxsus so‘zlarning umumiy to‘plami sifatida) tipik toifadagi tushunchalarning mavjudligi, unga ko‘ra atamalarning asosiy korpusi taqsimlanadi.

Gistologiya sohasiga oid terminlar lug‘atlarida shu sohaga oid bo‘lgan, o‘zining anatomic, inson tanasining organlar va tuzilmalarining turli qatlamlarining xilma-xil tuzilishiga e’tibor qaratdi. Gistologik atamalar kolposkopik atamalardan farq qilishi mumkin. Gistologik terminologiya to‘qimalarning tarkibi va sifatini tavsiflaydi, kolposkopik terminologiya esa ularning tashqi ko‘rinishini tavsiflaydi. Kolposkopiya tarixida juda ko‘p turli xil aralash gistokolposkopik atamalar qo‘llanilgan, ularning ko‘pchiligi hozirgi vaqtida adabiyotda topilishi mumkin, bu har doim ham amaliyotda shifokor uchun tushunarli emas. Masalan, skuamoz metaplaziya, skuamoz prosoplaziya va epidermidizatsiya transformatsiya zonasida kuzatilgan bir xil gistologik naqshga murojaat qilish uchun ishlatiladi, bu esa ushbu tushunchalarni ma'lum bir standartlashtirishni talab qiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar nuqtai nazaridan, kolposkopik tashxisda qo‘llanilmasligi kerak bo‘lgan gistologik tushunchalar quyidagi atamalarning ba’zilarini o‘z ichiga oladi. Gistologiyada qo‘llaniladigan terminologiya ko‘p jihatdan anatomikga o‘xshaydi, ammo tashkilotning faqat mikroskopik va ultramikroskopik

⁴¹ Калинин А.В. Лексика русского языка:, 1971 – с. 141

⁴² Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986 -с.163

darajasiga mos keladigan ko‘plab atamalar "sof gistologik" hisoblanadi. Ushbu atamalar boshqa tibbiyot fanlari tomonidan keng qo‘llaniladi, masalan fundamental, nazariy va klinik⁴³.

Hozirgi vaqtida fan va texnika sohlarida yuz berayotgan shiddatli rivojlanish, innovatsiya Respublika aholisi faoliyatining turli qirralariga samarali ta’sir o’tkazmoqda. Fan va texnika qo‘lga kiritgan eng oxirgi muvaffaqiyat va yutuqlar asosidagi yangi texnika vositalariga egalik qilinmoqda. Ushbu texnika va texnologiya vositalari nomlarini anglatuvchi terminologik leksika o‘zbek tili lug‘at tarkibining kundan kunga boyib, kengayib borishida munosib ulush bo‘lib qo‘shilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ta’kidlash lozimki, Mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi o‘z qaror topish yo‘lining boshlanish nuqtasida turibdi. U o‘zbek tilshunosligining muhim sohasi sifatida yillar davomida yig‘ilgan tajribalar zaminida taraqqiy etmoqda, takomillashmoqda va kengaymoqda.

O‘zbek gistologik terminologiyasi haqidagi proffessor U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. K.M.Musayev⁴⁴ terminologiyani tilning leksikasi sifatida go‘yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsada, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo‘lgan turli me’morlar, loyihibachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o‘rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o‘ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi. Ma’lumki, terminlar oddiy so‘zlar singari umumadaniy va maxsus leksikada bor bo‘lgan so‘z va o‘zaklardan yasaladi.

O‘zbek tili gistologik terminlari sistemasi o‘zga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya’ni sodda, yasama, qo‘shma, qisqartma va so‘z birikmalarini qamrab oladi. O‘zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida qilinishi lo zim bo‘lgan vazifalar yetarlicha. Bugungi kunda o‘zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Terminlaming ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqeа-hodisa tushunchasi, ma’no-mazmuniga mutanosib, mos tushishi, struktur (shakl) jihatdan ixcham bo‘lishi, yakka ma’noni ifodalashi, ma’nodoshlik (sinonimik) qatorlariga kirmasligi kabi talablar terminshunoslar diqqat markazidan joy olganligi yangilik emas. Ayniqsa, chet tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan ilm, fan, texnika, texnologiyaga doir terminlami qanday tarzda qabul qilish, o‘zlashtirish xususida har xil 58 yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Istiqloldan keyin o‘zbek terminologiyasi nafaqat miqdor, shuningdek, sifat o‘zgarishlarga ham yuz qo‘ydi⁴⁵.

⁴³ Dadaboyev.H. O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent – 2019 –yil.- B.145

⁴⁴ Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986 -с.163

⁴⁵ Dadaboyev.H. O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent – 2019 –yil.- B.145

O‘zbek tili imkoniyatlaridan foydalangan tarzda terminlar tizimini tartibga solish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minalash, O‘zbekistonidagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilamoqda va tilning qaysi sohasi bo‘lishidan qat’iy nazar uning rivojiga salmoqli hissa qo‘sishni talab qilmoqda. Zero, ona tilini sevish, uni ardoqlash millatni sevish va uni ardoqlash bilan teng hisoblanadi. Zotan, muhtaram Prezidentimiz aytib o‘tganlaridek: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qadrlashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”. Til sohasi rivoji boshqa barcha sohalar uchun keng imkoniyatlarni ochib beradiga kalitdir.

ADABIYOTLAR

1. Bakayev N.B., Toxirova G.I. Hozirgi zamон fransuz tili leksikologiyasi. -Buxoro, 2007.- 289 b
2. G.A. Asilova, O‘zbek tili” – T.: ToshDU, 2018. – B.123-126
3. Baxtiyor Omon. Siyosiy yetakchining noiqlik mahorati. – T.: O‘zbekiston, 2000.
4. Begmatov E.A., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – T.: Fan, 1999.
5. Dadaboyev.H. O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent – 2019 – yil.
6. Tojiev Yo. va b. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: ToshDU, 1994.- B.234
7. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati: Yuridik oliv o‘quv yurtlari uchun darslik/Sarlavhada O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: TDYI nashriyoti, 2005. -178 b.
8. Камолов Ф. Семасиология. –Т.: АДТИ нашрёти, 1957.–Б. 130.
9. Миртохияев.М. Ўзбек тили семасиологияси.–Тошкент, 2007. –187 б.
10. Нормуродова Н., Уралова Ч., Олимзода П. Роль дополнительных занятий в обучении иностранному языку //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/S. – С. 12-16
11. Чернявскес М.Н. Латенскес яғық ё основы медеңенскос термөнологгө. - М.: ЗАО «Шеко», 2011.

12. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. –М.: Просвещение. 1972. –С. 56;
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.// A. Madvaliyev tahriri ostida. -Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 456 b.
14. Xo‘jayeva L.U. Lotin tili. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - B.164
15. Xojiyeva A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. – T.: O‘qituvchi, 1985. - B.99
16. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." International Journal on Orange Technologies 3.12 (2021): 211-216.
17. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 11. 2022.
18. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.
19. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.
20. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."